

SAYXUNOBOD TUMANI “RABOT” MASSIVI TUPROQLARINING SIFAT
BAHOSI NATIJALARI

Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich

*Guliston davlat universiteti, biologiya fanlari doktori (DSc), professor, e-mail:
turdimetov1970@mail.ru*

Bolbekov Ulug‘bek Abduqayum o‘g‘li

Magistrant

Annotatsiya: *Maqolada Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani “Rabot” massivi tuproqlari xossa va xususiyatlari haqiada ma’lumot berilgan. Tuproqning mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi, gumus miqdori bo‘yicha ko‘rsatkichlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu massiv tuproqlarining sifat bahosi bo‘yicha tadqiqot natijalari berilgan. Tuproq bonitet balliga eng katta ta’sir qiluvchi omil sho‘rlanish datajasi bo‘lib, o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda bonitet balli keskin tushib ketganligi kuzatilgan.*

Kalit so‘zlar: *tuproq sifat bahosi, bonitet balli, bonitirovka koeffitsiyentlari, gumus, mexanik tarkib, sho‘rlanish darajasi, quruq qoldiq, xlor, sulfat, natriy, kalsiy, magniy, azot, fosfor, kaliy.*

Tuproq sifatini kompleks baholash, ya’ni agrokimyoviy va agrofizikaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish yer resurslaridan oqilona foydalanish, hosildorlikni barqaror oshirish hamda tuproq degradatsiyasining oldini olish imkonini beradi. Ayniqsa, tuproq sifatini baholash natijalari qishloq xo‘jaligida yerlarni rayonlashtirish, ekin turlarini joylashtirish, sug‘orish va o‘g‘itlash tizimlarini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

E.K.Kuvshinova, Yu.V.Gordeeva, Zh.V.Matveykina, E.V.Karvtsovalarning [1] ilmiy ishlarida Rostov viloyatining Janubiy qishloq xo‘jaligi mintaqasidagi to‘q kashtan tuproqlarining tanlangan agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Bu xususiyatlar nafaqat tuproq unumdorligini tavsiflaydi, balki o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini ham belgilaydi, ularning unumdorligiga ta’sir qiladi.

B.Nasiyev [2] fikriga ko‘ra, yaylov ekotizimlari tuproqning sifatini saqlash, milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda juda muhimdir. Qozog‘istonda bunday foydali vositalar tuproqni baholash va qishloq xo‘jaligi yaylovlari bilan bog‘liq holda tuproq xususiyatlarining dinamik o‘zgarishlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning maqsadi G‘arbiy Qozog‘istondagi yaylov tuproqlarining hozirgi holatini klassik dala tadqiqot usullari va laboratoriya tahlili usullaridan foydalangan holda baholashdir. G‘arbiy Qozog‘istonning yarim cho‘l mintaqasida Miras dehqon xo‘jaligi asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, almashlab ekish nisbatan tuproq sifatini saqlash va yaxshilash uchun muhim omildir.

Sirdaryo viloyati tuproqlarining xossalarini yaxshilash va unumdorligini orttirish uchun turli o‘simlik resurslaridan foydalanishga oid ilmiy ishlar olib borilgan [3-7]. Ilmiy tadqiqotlarda takroriy ekinlardan foydalanib, oziqa moddalarning harakatchan shakllarining ortishiga erishilgan. Shuningdek, sidirat ekinlari ekish orqali tuproqning fizik va agrokimyoviy xossalarini yaxshilash orqali ma’lum darajada unumdorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Sh.M.Turdimetov va boshqalar [8] tomonidan tuproq xossalari va kuzgi bug'doy ekini donining sifat ko'rsatkichlari hamda hosildorligi o'rtasidagi korrelyativ bog'liklarni aniqlangan. Tuproq sho'rlanish darajasi va dondagi kleykovina o'rtasida teskari korrelyatsiya mavjudligi e'tirof etilgan. Mirzacho'l vohasi tuproqlarining evolutsiyasi, uning unumdorligini, ya'ni sifat bahosini aniqlash bo'yicha ilmiy ishlarning aksariyatida tuproq unumdorligiga ta'sir qiluvchi omil tuproq sho'rlanish darajasi ekanligi qayd etilgan [9-10].

Sayxunobod tumanidagi "Rabot" massivi tumanning sharqiy qismida, Sirdaryo daryosining II-qayir usti terrasasida joylashgan. Ushbu massiv Sirdaryo va Guliston tumani hamda Toshkent viloyati bilan chegaradosh hisoblanadi. Tuproqlari asosan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlardan iborat.

Massivning umumiy maydoni 2114,5 gektarni tashkil etadi, shundan sug'oriladigan maydonlar 1433,3 gektar.

Tuproq mexanik tarkibi bo'yicha asosan o'rta va og'ir qumoqli tuproqlar tashkil etadi, ya'ni qumloq tuproqlar 158,2 ga (11,0 %), yengil qumoq 388 ga

(27,1 %), o'rta qumoqli 450 ga (31,4 %) va og'ir qumoqli tuproqlar 427,2 ga (29,8 %) ulushiga to'g'ri keladi. Tuproq mexanik tarkibida qumloqdan og'ir qumoqgacha uchrashi ushbu tuproqlarning qatlamliligidan dalolat beradi. Bunday o'zgarishlar tuproqning sifat bahosiga ham ta'sir etadi.

Tuproq mexanik tarkibida farcha bo'z uproqlar kabi "yirik chang" zarrachalari ustunlik qiladi. Umuman olganda tuproq granulometrik tarkibi qishloq xo'jaligi ekinlari yerishtirish uchun qulay hisoblanadi.

Tuproq shorlanish darajasi bo'yicha sho'ri yivilgan, quruq qoldiq miqdori 0,3 foizga yetmaydigan maydonlar ustunlik qiladi. Xlorning miqdori ham zaharlilik darajasidan past, ko'pincha 0,007-0,014 foiz atrofida. Sulfatlar, natriy, kalsiy va magninyning miqdori ham unchalik yuqori emas. Sizot suvlarining chuqurligi 1,5-2,0 metr.

Gumusli qatlamning qalinligi 27-45 sm bo'lib, miqdori haydalma qatlamda 1,35-1,50 foizgachani tashkil etadi. Azotning miqdori gumus miqdoriga bog'liq holda tarqalgan. Harakatchan fosforning miqdori tuproq ayirmalari bo'yicha bir xilda tarqalmagan, ko'pincha 16-30 mg/kg. Harakatchan kaliy miqdori esa 200 mg/kg ga yetmaydi.

Sayxunobod tumani «Rabot» massivi sug'oriladigan tuproqlari 22 ta tuproq ayirmasiga ajratilgan. Amaldagi tuproq bonitirovkasini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomaga asosan, tuproq tipchasi va mexanik tarkibiga ko'ra asosiy shkala bilan baholandi.

Tuproqdagi gumus miqdori va sho'rlanish darajasiga ko'ra bonitirovka koeffitsiyentlari qo'llanildi.

Tuproq ayirmalarining bonitet ballining eng kami 42 ballni, eng yuqorisi esa 57 ballni tashkil etdi. Tuproq ayirmalari bo'yicha bonitet ballari bir-biridan keskin farq qilmaydi. Tuproq sifat bahosi bo'yicha asosan ikkita sinfga mansub: "O'rtacha" sinfga-709,3 ga (49,5 %) va "O'rtafhadan past"-724,0 ga (50,5 %).

Xo'jalik bo'yicha o'rtacha bonitet balli 50 ballni tashkil etdi.

Tuproq sifat bahosiga ta'sir qiluvchi asosiy omil tuproq sho'rlanish darajasi ekanligini alohida qayd etish lozim.

Shuning uchun tuproq sifat bahosini yaxshilash uchun sho'r yuvish muddatlari, usullari va mryyorlariga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кувшинова Е.К., Гордеева Ю.В., Матвейкина Ж.В., Кравцова Е.В. Оценка агрофизических и агрохимических свойств темно-каштановой почвы Южной зоны Ростовской области. *Зерновое хозяйство России*. 2016;(4):45-49.
2. Nasiyev B. et al. Assessing Variability of Soil Quality in Western Kazakhstan: Dynamic Effects of Grazing Practices. *International Journal of Design & Nature and Ecodynamics*. Vol. 19, No. 3, June, 2024, pp. 875-885.
3. Batirov X.A., Turdimetov Sh.M., Nurillaeva R.B. Ecological Role of Different Siderate Crops in Improving Soil Properties. *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations*. Volume 03 Issue 011-2023. pp 01-06.
4. Turdimetov Sh.M., Mirsharipova G.K., Botirova L.A., Mustafakulov D.M., Abdujalilova A.X. Impact of Legume Crops on the Agrochemical and Agrophysical properties of Soil in Mirzachol Conditions // - «Journal of Critical Reviews». ISSN- 2394-5125.VOL 7, -ISSUE 17, 2020. -Pp. 2220-2234.
5. Turdimetov Sh.M., Abdurakhmonov I.A., Botirova L.A., Zikirov I.Ya, Ashiralieva S.A. Soil Quality Assessment Principles for Vegetable Crops // - *Annals of R.S.C.B. (Romania)* - ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 6, 2021, -Pp. 9944 - 9952.
6. Musurmanova M.M., Turdimetov Sh.M. Improving the Properties of Irrigated Gray-Meadow Soils with the Help of Siderate Crops. *International Journal of Genetic Engineering*. p-ISSN: 2167-7239. e-ISSN: 2167-7220. 2024; 12(6): 146-150. doi:10.5923/j. ijge. 20241206.16.
7. Мусурманова М.М., Турдиметов Ш.М. Влияние различных сидератных культур на ферментативное состояние почвы. *Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research: A Collection Scientific Works Of The International Scientific Online Conference (30th October, 2024) – Poland, Warsaw : "CESS", 2024. Part 26– pp. 48-50.*
8. Shakhobiddin Turdimetov, Zarina Khudayberdieva, Akmal Uzaydullaev, Sardor Kuzibekov, Nasiba Esanbayeva, Dildora Xo‘jabekova, Xoyitjan Kudratov. “Effect of Soil Properties on Yield, Quality and Soil Quality Score of Food Crops”. *International Journal of Aquatic Research and Environmental Studies* 5(2) 1-11, 2025.
9. Turdimetov Sh., Esonboyeva N. Mirzaobod tumani tuproqlarining meliorativ holati. *Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке»*. Выпуск №37 (том 3) (апрель, 2023). С. 67-73.
10. Turdimetov Sh.M., Xudoyberdiyeva Z.A. Influence of Soil Properties on Grain Quality. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*. Volume 04, Issue 08, 2025. pp. 162-163.